
“TASHABBUSLI BYUDJET”NING 2024 YIL 2-MAVSUMI G’OLIBLARI!



“Tashabbusli byudjet”ning 2024 yil 2-mavsumi g’oliblari!

“Open budget”ning 2024 yil 2-mavsumi ham nihoyasiga yetdi. Mazkur “bellashuv”larda So’x tumanidan 65 ta loyiha tasdiqlanib, ovoz berish jarayoniga yo’naltirildi. Mazkur loyihalardan 6 tasi g’olib deb topildi.

2024 yilning 2-mavsumiga 7 milliard 652 million so’m mablag’ yo’naltirilgan.

“Tashabbusli byudjet”ning 2024 yil 2-mavsumi bo’yicha So’x tumanidan g’olib deb topilgan loyihalar:

1. TUL mahalla fuqarolar yig’inidagi “Sohibkor” hamda “Sarbast” ko’chalarini asfaltlashtirish loyihasi. Yo’ning uzunligi 2 000 metr. To’plangan ovoz soni – 3 516 ta.

Tasdiqlangan mablag’: 1 milliard 206 million so’m;

2. So’x tuman 10-son o’rta ta’lim maktabi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash (Sinfxonalar uchun mebel, kompyuter texnikasi va sport anjomlari) loyihasi. To’plangan ovoz soni – 3 441 ta.

Tasdiqlangan mablag’: 1 milliard 148 million 810 ming so’m;

3. Saribozorcha mahalla fuqarolar yig’ini “Sebzor” ko’chasida joylashgan 29-sonli maktabga yangi sport zali qurish loyihasi. To’plangan ovoz soni – 3 234 ta.

Tasdiqlangan mablag’: 1 milliard 360 million so’m;

4. So’x tuman markaziy shifoxona (ShTTYo) - Respublika tez tibbiy yordam bo’limiga qarashli So’x tuman tez tibbiy yordam binosini kapital ta’mir qilish hamda 10 kilovattli quyosh paneli o’rnatish loyihasi. To’plangan ovoz soni – 3 032 ta.

Tasdiqlangan mablag’: 1 milliard 360 million so’m

5. So’x tumani G’aznov mahalla fuqarolar yig’inidagi “Toshmazor” ko’chasini betonlash loyihasi. Yo’ning uzunligi 2 000 metr. To’plangan ovoz soni – 2 899 ta.

Tasdiqlangan mablag’: 1 milliard 206 million so’m;

6. So’x tuman 13-son o’rta ta’lim maktabi - Qaqir mahalla fuqarolar yig’inida joylashgan 13-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi xonalarini ta’mir qilish, isitish tizimini rekonstruksiya qilish, maktab atrofini devor bilan yirash hamda maktab oshxonasini ta’mir qilish loyihasi. To’plangan ovoz soni – 2 601 ta.

Tasdiqlangan mablag’: 1 milliard 360 million so’m.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-09-05 17:16:50